O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 12-11-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

265157 - SONLI

Obyekt nomi: Mavjud noturar “Ma’muriy ishlab chiqarish hududi” hududidagi binolarini yuridik hujjatga ega qismini rekonstruksiya qilishni loyihalash.	
Buyurtmachi:	"BINO VA MOL-MULKLARNI VAQTINCHALIK SAQLASH DIREKSIYASI"DAVLAT MUASSASASI
Bosh loyihachi:	"ARCH LAB" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	096379

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 2025-yil 20-avgustdagi Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 209291362-sonli ruxsatnomasi.

1.2. 2025-yil 26-avgustdagi 1726-1726287-237281-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. 2025-yilda “Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiya” DM va O`zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan tasdiqlangan hamda “Archlab” MChJ va kichik biznes uyushmasi bilan kelishilgan loyihalash topshirig‘i.

1.4. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2025-yil 5-iyunda tuzilgan 13-sonli shartnoma.

1.5. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 14oktabrdagi 219097728-sonli xulosasi.

1.6. O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 2025-yil 26-avgustdagi 01-02/14-8298-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

1.7. Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiya” DM 2025-yil 27-oktabrdagi 134-sonli hamda 135-sonli xatlari.

1.9. Ilmiy-ekspert kengashining 2025-yil 3-5-iyun kuni Qashqadaryo viloyatida bo‘lib o‘tgan 9-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayoni.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 8-oktabrdagi 02-11/3979-sonli xatiga ilova qilingan Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashining 2025-yil 22-sentyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan 16-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayoni.

1.11. O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 27-oktabrdagi 08-01-12137-sonli xati.

1.12. “Archlab” MChJ tomonindan 2025-yilda ishlab chiqilgan texnik xulosasi.

“Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiya” DM va O`zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda “Archlab” MChJ bilan kelishilib tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “ishchi loyiha” ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish ob’yekti hududining o‘ziga xos xususiyatlari.

Yakkasaroy tumani uchun tashqi havoning harorati:

- Hisobiy qishki harorat: t = –16,0 °C
- Hisobiy yozgi harorat: t = +60,0 °C
- Shamolning tezlik bosimi - 0,38 kPa (38 kg/m²);
- Qor qoplamining me’yoriy og‘irligi - 0,50 kPa (50 kg/m²);
- Qurilish hududining seysmikligi - 8 ball;
- Mavsumiy muzlashning maksimal chuqurligi - 0,70 m;
- Cho‘kuvchanlik bo‘yicha gruntlar toifasi - II (ikkinchi).

3.2. Bosh reja.

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani Bog‘saroy MFY, Shota Rustaveli ko‘chasi 8-uyda joylashgan.

Hududda quyshdagi bino-inshootalar loyihalangan:

-rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan bino;

-mavjud bino-inshootlar loyihalangan.

Shungdek, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlari ko‘zda tutilgan.

3.3. Arxitektura yechimlari*.*

A, B va C bloklar.

Bino 4 qavatli, yerto‘lali bo‘lib, murakkab shakldan iborat bo‘lib, umumiy o‘lchamlari 50,30x15,20x37,70 metrni tashkil qiladi.

Yerto‘la qavat balandligi - 3,0 metr, 1-4 qavat balandliklari-3,6 metr.

Binoning maksimal yer sathidan tashqi devorlarning yuqori qismigacha bo‘lgan balandlik - ±0,000 + 21,150 m.

Yerto`la qavatda yo`lak, texnik xonalar, omborxonalar hamda sanitariya-gigiyenik xonalar loyihalangan.

1, 2, 3 va 4-qavatda yo`laklar, dam olish xonasi, majlislar zali, ofis xonalar, kotiba xonasi, direktor xonasi, faollar zali, oshxona, sanitariya-gigiyenik xonalar va boshqa xonalar loyihalangan.

Tashqi bezatish ishalari.

Tashqi bezatish ishalarida suyuq travertin hamda granit bilan qoplash loyihada ko`zda tutilgan.

Ichki bezatish ishlari.

Ichki bezatish ishlarida sopol plitka, keramogranit, tarket, suvash, suvli emulsiyali bo`yoq bilan bo`yash, gipsokarton, MDF, PVX, armstrong bilan qolpash ko`zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Qurilish maydoni - 1350.0 m2.

Umumiy maydoni - 6723.0 m2.

Qurilish hajmi - 27675.0 m3.

G blok.

Bino 4 qavatli, yerto‘lali o‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lib, o‘qlar bo‘yicha umumiy o‘lchamlari 157.13x13.40 metrni tashkil qiladi.

Yerto‘la qavat balandligi - 3,3 metr, 1-2 qavat balandliklari-3,45 metr, 3-4 - qavat balandliklari 3,6 metr.

Binoning maksimal yer sathidan tashqi devorlarning yuqori qismigacha bo‘lgan balandlik - ±0,000 + 18,80 metr.

Yerto`la qavatda omborxona, texnik xonalar loyihalangan.

1, 2, 3 va 4-qavatda yo`laklar, ofis xonalari, texnik xonalar, direktor o`rinborsari uchun xonalar, kotiba xonasi, arxiv, IT xonasisanitariya-gigiyenik xonalar va boshqa xonalar loyihalangan.

Tashqi bezatish ishalari.

Tashqi bezatish ishalarida suyuq travertin hamda granit bilan qoplash loyihada ko`zda tutilgan.

Ichki bezatish ishlari.

Ichki bezatish ishlarida sopol plitka, keramogranit, tarket, suvash, suvli emulsiyali bo`yoq bilan bo`yash, gipsokarton, MDF, PVX, armstrong bilan qolpash ko`zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Qurilish maydoni - 2296.2 m2.

Umumiy maydoni - 10983.0 m2.

Qurilish hajmi - 43165.0 m3.

3.4. Konstruksiya yechimlari.

Blok-A,B,V

Devor konstruksiyalari.

Asosiy devor materiali - g‘isht (markasi M75), qalinligi 380 mm.

Yopishtiruvchi eritma - sement-qum qorishmasi M50 (180 kPa > R ≥120 kPa).

Gorizontal choklar har 500 mm masofada Sg-1 armatura to‘ri bilan mustahkamlangan (Ø5 Vr-I, GOST 6727-80).

Qishda ishlov berishda eritmaga muzlashga qarshi qo‘shimchalar kiritiladi.

Proyomlar (eshik va deraza o‘rinlari)

Mavjud devorlarda proyomlar (PP) kesilishi va to‘silib qayta tiklanishi (ZP) rejalashtirilgan.

Har bir proyom metall burchakli oboyma (L50x50x5) bilan mustahkamlanadi.

Metall elementlar o‘zaro po‘lat plastinalar (4x50 mm) yordamida payvandlanadi.

Payvandlash O‘z DSt 865-98 va GOST 9467-85 bo‘yicha E42A
elektrodlar bilan bajariladi.

Shvelyer №14 metall balka sifatida ishlatiladi va sement qorishmasi M100 asosida o‘rnatiladi.

Devorlarni mustahkamlash (“Rubashka” usuli)

Devorlar yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish maqsadida ikki tomondan armatura to‘rlari bilan qoplanadi.

Har ikki tomondan 120x80x100 mm o‘lchamdagi shponkalar kesiladi, qadam 800 mm (shaxmat tartibida).

Armatura to‘rlari:

Ø8 AIII - qadam 1000 mm.

Ø6 AI - qadam 400 mm.

Bog‘lash uchun sim Ø1.2-2.0 mm.

Beton sinfi - B20 (M250), sarfi 0.08 m^3/m^2.

Sement-qum qorishmasi M100, qalinligi 80 mm, ustiga rabitsa to‘ri bo‘yicha suvoq.

Mustahkamlash ishlari hajmi - o‘rtacha 1170-1250 m^2.

Metall konstruksiya elementlari

Armatura turlari: Ø6 A-I, Ø8 A-III, Ø12 A-III (GOST 5781-82).

Burchak profillar: L50x50x5 (GOST 8509-93).

Shvelyerlar: №14 (GOST 8240-97).
Plastinalar: 4x50x250–370 mm (GOST 19903-74).
Payvandlash chokining balandligi eng yupqa element qalinligidan oshmasligi lozim.
Beton ishlari
Poydevor va priyamkalar uchun beton sinfi B20 (M250), ayrim joylarda B7.5 (M100).
Qoplamalar tsement-qum qorishmasi M150, 30 mm qalinlikda.
Armaturalangan priyamkalar Ø10-Ø12 A500C armaturalari bilan to‘r shaklida mustahkamlangan.
Qurilish ishlari bo‘yicha texnik ko‘rsatmalar
Metall oboymalarni devorga aniq o‘lchamda o‘rnatish va choklarni to‘liq payvandlash zarur.
Shponkalar va teshiklarni burg‘ulashda qadam va o‘lchamlar texnik talablarga mos bajariladi.
Beton va suvoq ishlari oldidan devor yuzasi suv bilan namlanadi.
Ishlar KJ varaqalari bilan bog‘liq holda bajariladi.
Metall konstruksiyalar yuzasi rabitsa to‘ri orqali suvoq bilan yopiladi va korroziyadan himoyalanadi.
Asosiy qurilish materiallari tavsifi
Armatura Ø8 AIII-GOST 5781-82 bo‘yicha, sarfi 1000-1070 kg.
Armatura Ø6 AI-GOST 5781-82 bo‘yicha, sarfi 350-380 kg.
Beton B20 (M250)-0.08 m^3/m^2.
Sement-qum qorishmasi-M50-M100 markali, devor va proyom ishlari uchun.
Suvoq (M150) - umumiy hajmi 90-100 m^3.
G‘isht M75 - 0.7–2.2 m^3/proyom.
Blok-G
Metall karkas
Asosiy elementlar: shveller №40 (GOST 8240-97) - asosiy oraliqlar.
Yordamchi elementlar: shveller №20-№40 oralig‘iga perpendikulyar o‘rnatiladi.
Qo‘shimcha elementlar: shveller №12 - lift zonalari va oraliq chegaralarda.
Kolonnalar: I-balka №30 va №40, po‘lat 09G2S.
Rigellar: shveller №40, uzunligi 5,2-6,0 m.
Payvandlash: E42A elektrodlar bilan (GOST 9467-75), to‘liq chok bilan.
Antikorrozion himoya: gruntovka GF-021 + emal PF-115 (2 qatlam).
Kolonna oboymalari
Kolonnalarni mustahkamlashda metall oboyma (po‘lat qobiq) tizimi qo‘llanilgan -bu elementlar binoning vertikal yuk ko‘tarish barqarorligini sezilarli darajada oshiradi.
Texnik tavsif:
Oboyma materiali - po‘lat burchaklar L50x50x5 (GOST 8509-93).
Ulanish - 4 mm qalinlikdagi po‘lat plastinalar bilan to‘liq payvand orqali.
Kolonna atrofida 4 ta burchak elementdan iborat “ramka” hosil qilinadi.
Kolonna va oboyma orasidagi bo‘shliq sement-qum qorishmasi M100 bilan to‘ldiriladi.
Payvandlash choklari uzluksiz, elektrod E42A bilan.
Har bir oboyma segmenti balandligi 600–800 mm bo‘lib, ular vertikal choklar orqali ketma-ket ulanadi.
Oboymalar o‘rnatilgach, korroziyadan himoya qoplamasi qo‘llanadi.
Ushbu yechim kolonnalarning markaziy siqilish va momentlarga nisbatan barqarorligini oshiradi hamda ularni seysmik yuklarga nisbatan chidamli qiladi.
Qavatlararo orayopma (yangi quyma tizim)
Yangi orayopma - metall karkas asosidagi monolit temirbeton kompozit qoplama.
Tarkibi:
-Shveller №40 - asosiy yuk ko‘taruvchi elementlar;
-Shveller №20 - yordamchi balkalar;
-Shveller №12 - lift zonalari va tugunlarda qo‘shimcha mustahkamlovchi elementlar;

-Beton sinfi - B25 (M350);
-Armatura - Ø12 A500C, 150×150 mm qadamda ikki qatlamli to‘r;
-Qalinligi - 120–140 mm;
-Ankerlash - shveller flanetslariga payvandlangan metall ankera orqali;
-Profnastil (0,8-1,0 mm) vaqtinchalik qolip sifatida ishlatiladi.
Beton va po‘lat elementlar birgalikda ishlovchi tizimni hosil qilib, orayopmaning yuk ko‘tarish qobiliyati va deformatsion barqarorligini oshiradi.
Lift shaxtasi va priyamok.
Turi: monolit temirbeton karkas.
Ichki o‘lchamlar: 2,1x2,1 m.
Devor qalinligi: 200 mm.
Beton sinfi: B25 (M350), W6, F150.
Armatura: Ø12–Ø16 A500C, 150x150 mm qadamda.
Poydevor (priyamok): chuqurligi 1,8 m, ostida 100 mm B7.5 podbetonka.
Ulanish: orayopmalar bilan №12 va №20 shvellerlar orqali payvandlangan.
Gidroizolyatsiya: ichki yuzalar rulonli membrana bilan himoyalangan.
Monolit qismlar va beton ishlari
Beton quyishdan oldin sirtlar suv bilan namlanadi.
Beton qorishma zavodda tayyorlanadi (B25 sinfli).
Qo‘shimcha armaturalash ustun-rigel tugunlarida Ø16 A500C bilan bajariladi.
Qoplama usti tsement-qum qorishmasi M150 bilan tekislanadi.
Sovuqda betonlash +5 °C dan past bo‘lmagan haroratda amalga oshiriladi.
Korroziyadan himoya
Metall sirtlar: gruntovka GF-021 + emal PF-115 (2 qatlam).
Beton yuzalari: bitum-polimer mastika bilan suv izolyatsiyasi.
Lift shaxtasi devorlari: gidroizolyatsion membrana bilan qoplangan.
Oboymalar va shvellerlar yuzasi: bo‘yashdan oldin tozalangan, changsiz holatda.

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Issiqlik ta’minoti markazlashtirilgan issiqlik tarmog‘idan amalga oshiriladi.
Binoning konstruksiyalari chegaraviy holatlar bo‘yicha II darajali yong‘inga chidamlilikka ega.
Funktsional yong‘in xavfi sinfi – F4.3,
konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – C1.
Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan:
-Qurilish maydonidagi yo‘llar va yong‘inga qarshi oraliqlar me’yoriy talablariga muvofiq joylashtirilgan;
-Binoning tashqi fasad qismi yonmaydigan materiallardan tayyorlanadi (issiqlik izolatsiyasi sifatida bazalt asosidagi mineral paxta plitalari, tashqi qoplama- suyuq travertin ishlatiladi);
-Har bir qavatdan evakuatsiya qilish uchun tabiiy yoritilgan ichki L1 turdagi zinapoyalar loyihalangan;
-Ofis xonalarining eshiklari ichkariga ochiladi;
-Yerto‘la (podval) qavatidagi chiqishlar alohida ajratilgan bo‘lib, ular umumiy zinapoya qismidan yong‘inga chidamli devorlar (pergoda) bilan ajratilgan;
-Har bir qavatdagi umumiy koridorlar yong‘inga qarshi bo‘linmalar (devor va eshiklar) bilan ajratilgan;
-Zinapoya maydonchasidagi eshiklar evakuatsiya yo‘nalishiga qarab ochiladi;
-Evakuatsiya chiqish eshiklari avtomatik o‘z-o‘zidan yopiluvchi qurilmalar bilan jihozlanadi;
-Binoda ichki yong‘in o‘chirish suv tarmog‘i o‘rnatilgan bo‘lib, har bir qavatda yong‘in kranlari joylashtirilgan;
-Yerto‘la qavatida yong‘in nasoslari o‘rnatilgan nasosxona ko‘zda tutilgan;
-Bino avtomatik yong‘in signalizatsiyasi tizimi bilan jihozlanadi;

-Evakuatsiya yo‘llarida chiqish yo‘nalishini ko‘rsatuvchi yoritilgan ko‘rsatkichlar (svetovoy indikatorlar) o‘rnatiladi;

-Yong‘in shkaflarida dastlabki yong‘inni o‘chirish vositalari mavjud bo‘ladi;

-Tom konstruksiyasidagi yog‘och elementlar yong‘inga qarshi maxsus himoya (ognezashchitnaya) ishlovi bilan qoplanadi;

-Binoning tom qismida xavfsizlikni ta’minlovchi panjara (og‘ralgan joy) o‘rnatiladi;

-Chordoqga chiqish mahkam o‘rnatilgan narvon orqali lyukdan amalga oshiriladi.

3.6. Energiya tejamkorlik.

Energiya resurslarini tejash maqsadida loyihada quyidagi yechimlar qo‘llanilgan:

-tashqi devorlar hamda tom qismi issiqlik izolyatsion materiallardan ishlab chiqilga;

-obyektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o‘rnatilishi nazarda tutilgan;

-yo‘lak va zinlardagi eshiklar o‘zini o‘zi yopadigan moslamalar ko‘zda tutilgan;

-Binoning tom qismiga quvvati 570 Vt bo‘lgan A, B va C bloklarda 95 dona, G blokda 144 dona quyosh panellari o‘rnatilishi ko`zda tutilgan.

-Issiq suv uchun, B va C bloklarda quvvati 5,8 Vt bo‘lgan 8 dona, G blokda 12 dona quyosh kollektorlari o`rnatilishi loyihalangan.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Ushbu obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlarining isitish, shamollatish, suv ta’minoti va oqova suv tarmog‘i, elektr ta’minoti, hamda aloqa tarmoqlari ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqildi.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 14oktabrdagi 219097728-sonli xulosasi.

5.2. O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 2025-yil 26-avgustdagi 01-02/14-8298-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

5.3. Buyurtmachi bilan kelishilgan, buyurtmachining e`tiroz va takliflari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **146 788 140 412** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

28 699 172 268 so'mga kamaytirilib, **118 088 968 144** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **63 501 138 008** so'm

Asbob-uskunalar: **6 366 012 692** so'm

QQS: **8 384 058 084** so'm

6.1. Ishchi loyiha hujjatlari ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura, qurilish, ichki muhandilik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha e’tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Eksperiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

-Buyurtmachi tomonidan Bosh loyiha tashkilotinning oraliq ekspert xulosasiga javob xatlari taqdim qilindi;

-tashqi fasadini ta’mirlash loyihasidagi tashqi derazalar atrofida o‘rnatilishi rejalashtirilgan arxitekturaviy elementlar Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashining 2025-yil 22-sentyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan 16-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayoniga asosan loyihadan chiqarildi;

-Loyihalash topshirig‘ining 16 bandiga asosan obyektning tashqi muhandislik tarmoqlari hamda ayrim ichki tarmoqlar ekspertizada tomonidan ko‘rib chiqilmadi.

6.3. Ekspertizaga taqdim etilgan obyektning joriy narxlardagi umumiy qiymati QQS bilan, buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 146 788 140,412 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lib, ekspertiza natijasiga ko`ra 28 699 172,268 ming so‘mga kamaytirilib, QQS bilan buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 118 088 968,144 ming so‘mni tashkil etdi Jumladan:

-Qurilish-montaj ishlari - 63 501 138,008 ming so‘m;

-Uskunalar 6 366 012 692 ming so‘m;

-Ishga tushirish va sozlash ishlari 947 241,554 ming so‘m;

-QQS 8 384 058,084 ming so‘m;

-Import maxsulotlar qiymati - 39 837 759 360 so‘m (Ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmadi).

Obyekt qiymatining tushishi smeta normalari loyixadagi ish turlariga mos ravishda qayta tanlangani, smetadagi ish xajmlari loyixa asosida qayta ko‘rib chiqilgani, smetaga Demontaj ishlarining qo‘shilgani, ish normalaridagi asossiz qo‘llanilgan koeffitsiyentlarning olib tashlangani, material va uskunalarning narxlari o‘rtacha bozor qiymatiga moslashtirilgani, transport xarajatlari qiymati kamaytirilgani, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari qiymati olib tashlangani orqali amalga oshdi.

6.4. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi, Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashining talablariga amal qilish lozim.

6.5. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son, 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlar talablariga amal qilinsin.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi

321-son qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.8. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ishchi loyiha hujjatlarini mazkur xulosada ekspertiza tomonidan berilgan sharhlar bo‘yicha to‘g‘irlab taqdim etish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy hisoblanmaydi.

6.9. Qurilishning yakuniy qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish oxirida, nazorat o‘lchovlari natijalariga ko‘ra belgilanadi.

6.10. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, “Mavjud noturar “Ma’muriy ishlab chiqarish hududi”dagi binolarini yuridik hujjatga ega qismini rekonstruksiya qilishni loyihalash”

ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan ishchi loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko`rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Asatillayev Sardor Asatilla O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Musayev Rustam Talatovich, Turayev Shoxrux Ilxomovich, Murodillayev Yashnarbek Otamurod O‘g‘li, Tursunov Rovshan Xasildjanovich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Usmanov Aybek Daniyarovich, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, A’zamxo‘jayev Oqilxo‘ja A’loxo‘ja O‘g‘li